

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ
ВАЗИРЛИГИ**

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

**«ИННОВАЦИЯ -
МОДЕРНИЗАЦИЯНИНГ
КОНЦЕПТУАЛ АСОСИ»**

**мавзусидаги Республика миқёсидаги
илмий-амалий анжуман**



БУХОРО - 2016

«Инновация-модернизациянинг қонцептуал асоси»

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

**“ИННОВАЦИЯ -
МОДЕРНИЗАЦИЯНИНГ
КОНЦЕПТУАЛ АСОСИ”**

Республика илмий-амалий анжуман

ТҮПЛАМИ

Бухоро - 2016 йил

маданий қадриятларга ёнсбатан нуқтаи назари, бу нуқтаи назарнинг ижтимоий жиҳатдан йўналтирилганлиги, педагогик қарашлари, кизиқишилари ва маънавий эҳтиёжлари, мустақил таълим олиш ва камолотга интилиш истаги намоён булади.

2. Шахснинг когнитив йўналишнинг таркибий қисмлари сифатида назарий-методологик, методик ҳамда техник билимлар тавсифланади.

3. Маънавий-ахлоқий йўналиш. Педагогнинг маънавий, ахлоқий жиҳатдан шаклланиш даражасини белгилайди. Мазкур йўналишнинг таркибий қисмлари сифатида ўқитувчининг ахлоқий, шахсий ҳамда касбий-педагогик сифатлари қайд этилади.

4. Амалий-фаолиятига кўра ўкув-тарбия жараёнида таркиб топган ва ижодий хусусият касб этувчи касбий-педагогик фаолият моҳиятини ифодараб педагогик кўнишка, малака ҳамда шахсий педагогик қобилияtlарни ифодалашга хизмат қиласди.

Бундай ҳолат бир томондан бўлажак ўқитувчининг касбий-шахсий тайёргарлигини янги педагогик ҳамда ахборот технологиялари асосида амалга ошириш зарурлигини кўрсатса, иккинчи томондан, бўлажак ўқитувчи ўз фаолиятини самарали ташкил этишда ташкилотчилик, сезгилар билан боғлиқ бўлган технологияларни биргаликда қўллаш кўнишкаларини ҳам мукаммал эгаллаган бўлиши зарурлигини тақазо этади.

Олий таълим жараёнини технологиялаштириш бугунги кунга келиб устивор аҳамият касб этмоқда. Зоро, янги ахборот оқимларининг тўхтовсиз кириб келиши ва ўкув жараёнида уларни ўзлаштириш эҳтиёжининг мавжудлиги, улардан файланиш учун вактнинг чекланганлиги, уларни саралаш ва тизимлаштиришнинг бирмунча мураккаблиги ҳам янги педагогик технологияларни қўллашни тақозо этади.

Бўлажак ўқитувчининг педагогик одобга риоя қилиш интизоми унинг таълим-тарбия ишидаги самарадорликни таъминловчи асосий омилга айланади. Педагог одоби-ўқитувчининг ташки ва ички педагогик маданиятини намоён қиласди.

TURIZM BIZNESIDA SAMARADORLIK TUSHUNCHASI

A.Ergasheva- Bux DU

Turizm o’zining ko’p qirrali tarkibi bilan jamiyat hayotining barcha sohalariga faol ta’sir o’tkazib kelmoqda. U iqtisodiyotning ko’pgina jabhalarini rivojlantirishga imkon tug’diradi. Jumladan, transport tarmoqlari, aloqa, yo’l qurilishi, mehmonxonalar, umumiyl ovqatlanish korxonalar, kommunal xo’jaligi, maishiy xizmat ko’rsatish, servis sohasi, savdo tarmoqlari va h.k. Turizmni rivojlantirish bir vaqtning o’zida o’ziga xos dam olish, hordih

chiqarish, ko'ngil ochar maskanlar industriyasini tashkil etib, o'z о'mida sayyoohlarga sifatli xizmat ko'rsatish bilan bog'lik bir qator sohalarni qamrab olgandir.

Ishlab chiqarish samaradorligi har bir turistik korxona faoliyatining eng asosiy vazifasi hisoblanadi. U xo'jalik yuritishning sifat va miqdor ko'rsatkichlarini, shuningdek, buyumlashgan va jonli mehnat xarajatlari hamda olingan natijalar o'rtaсидаги munosabatni ifodelaydi.

Afsuski, bozor sharoitlarida "samaradorlik" tushunchasi, garchi, daromad olish, xarajatlarni kamaytirish, mehnat samaradorligining o'sishi, fond qaytimi, rentabellik va hokazolar samaradorlik tabiatiga mos kelib, bozor iqtisodiyotitalablariga zid kelmasada, baho, foyda, daromad, xarajat kabi tushunchalarga qaraganda kam qo'llanilmoqda. Samarali ishslash degani o'z mohiyatiga ko'ra,

mo'ljallangan (rejalashtirilgan) foydani olish, noishlab chiqarish xarajatlari va yo'qotishlarni kamaytirish, ishlab chiqarish quvvatlari va ishchi kuchidan yaxshiroq foydalanish, mehnat samaradorligini oshirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotningsifatini yaxshilashni anglatadi.

"Samara", "samaradorlik", "ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik" kabitushunchalarning orasidagi farqni anglab olish zarur.

Samara – bu, ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat), foyda va daromad hajmini oshirish, mahsulot tannarxini kamaytirish, sifatsiz mahsulot ishlab chiqarishni kamaytirish yoki umuman, yo'q qilish bilan bog'liq bo'lgan korxona faoliyatining ijobjiy natijalaridir. Bu yutuqlar natural shaklda *ishlab chiqarish samarasini*, pul shaklida esa *iqtisodiy samarani* tavsiflaydi.

Samaradorlik, avvalo, turistik korxona faoliyatining sifat jihatlarini tavsiflovchi tushunchadir. U "samara" toifasidan kelib chiqadi hamda unga qaraganda murakkab va kompleks tavsifga ega. Samaradorlik chora sifatida ko'plab texnik, iqtisodiy, loyiha va xo'jalik qarorlarini avvaldan belgilab beradi. Korxona o'zining xo'jalik, ilmiy-texnik va investitsion siyosatini belgilashda samaradorlikdan kelib chiqadi.

Iqtisodiy samaradorlik samaradorlikka qaraganda bir muncha tor ma'noni anglatadi. U qabul qilinayotgan qarorlarning xo'jalik yuritishda maqsadga muvofiqligini tavsiflaydi hamda barcha hollarda samaraning unga erishish uchun ketgan xarajatlar(ishlab chiqarish resurslari)ga nisbatli sifatida aniqlanadi. Xarajatlar qanchalik kam bo'lsa (mahsulot sifatiga ta'sir qilmagan holda), samara shunchalik ortadi, demak, iqtisodiy samaradorlik ham ortadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarish samaradorligini mehnat sharoitlarini, uning ijodkorlik mazmunini boyitish, aqliy va jismoniy mehnat o'rtaсидаги farqni yo'qotishni inobatga olgan holda tavsiflaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik bir vaqtning o'zida, ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytirish, turistik korxonaning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi, shaxsning har tomonlama

rivojlanishi va uning barcha qobiliyatlaridan foydalanishning sabab va natijasi hisoblanadi. Bevosita ijtimoiy samara, xodimlarning bilim va malakasi, tajriba va madaniyatining ...

o'sishi, aholi sog'lig'ining yaxshilanishi va umr ko'rishining uzayishida aks ettiriladi.

Ishlab chiqarish samaradorligi ijtimoiy samaradorlikka nisbatan birlamchi hisoblanadi: iqtisodiy yutuqlar korxonaning ijtimoiy muammolarini hal qilishga yordamlashadi. Masalan, foydaning o'sishi, jamg'armalarning ortishi korxonaga ijtimoiy vazifalar doirasini kengaytirish va ularni hal qilish imkonini beradi. Biroq samaradorlik va uning asosiy ko'rsatkichi - foyda (daromad) o'zo'zidan, avtomatik ravishda yuzaga kelmaydi. Turli korxonalarda samaradorlikka erishish uchun mavjud ishlab chiqarish quvvatlari va boshqa xususiyatlardan kelib chiqqan holda, turli vosita va yo'llardan foydalaniladi. Bunda vaqt omili, ya'ni samaradorlikka qisqa yoki uzoq muddatlarda erishishni mo'ljallah, asosiy rollardan birini o'yinaydi. Masalan, korxona olayotgan foydasini qisqa vaqt mobaynida mahsulot sifatini yaxshilashni mablag' bilan ta'minlash, ishlab chiqarishni qayta

qurollantirish va modernizatsiya qilish, xodimlar malakasini oshirishga ajratilayotgan mablag'larni kamaytirish yo'li bilan ko'paytirishi mumkin. Uzoq muddatlari rejalarda esa bu, foydaning kamayishiga va hattoki korxonaning bozordagi o'mini yo'qotishi natijasida bankrotga uchrashiga olib kelishi mumkin.

Xorijiy turistik firma va korxonalar o'z faoliyatlarida samaradorlikka erishish uchun ishlab chiqarish texnika va texnologiyalariga e'tiborni kuchaytirishdan tashqari, mahsulot va xizmat sifatini oshirish va uni reklama qilishga alohida e'tibor qaratmoqdalar.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqadiki, samara va samaradorlik qotib qolgan kategoriylar qatoriga kirmaydi hamda faqatgina pul ko'rinishida o'lchanmaydi. Samaradorlik va sifatli mehnat tufayli korxona *birinchidan*, o'zining iqtisodiy barqarorligi va bozordagi raqobatchilikka bardosh berishini ta'minlaydi, *ikkinchidan*, o'z imidjini yaxshilaydi va hamkorlar bilan aloqalarini mustahkamlaydi, *uchinchidan*, xodimlarning iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini yaxshilaydi.

Nisbatning kattalashishi mehnat, moliya, texnologiya va moddiy resurslaridan

unumliroq foydalanishni anglatadi. Chunki aynan ular ishlab chiqarish hajmi va xarajatlari, mahsulot bahosiga ta'sir o'tkazadi. Xo'jalik faoliyati minimal xarajatlar

bilan yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish yo'iga qo'yilgan joylarda samaraliroqbo'ladi.

Turistik korxona faoliyati samaradorligini oshirish oshirish, xo'jalik yuritishning bozor tizimi hamda har qanday davrning mühim talabidir.

«Инновация-модернизацияниң концептуал асоси»

Samaradorlik istalgan turistik korxonaning iqtisodiy barqarorligi va faoliyat yuritish qobiliyatini aks ettiradi. Har qanday ishda, jumladan, turistik korxonalar faoliyatida samaradorlikning, ijobjiy natijalarning mavjud bo'lmasligini, obrazli qilib aytganda, ovoragarchilik, vaqt, kuch va resurslarni yo'qotish bilan izohlash mumkin.

Fan-texnika taraqqiyoti turistik korxonalarning ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib kelgan va hozirda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Bozor munosabatlari shakllanayotgan hozirgi sharoitlarda, chuqur sifat o'zgarishlari, tamoyillari yangi texnologiyalar va so'nggi avlod texnikasiga o'tish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini fan va texnikaning eng yangi yutuqlari asosida

qayta qurollantirish zarur. Shu bilan bir qatorda olimlar, konstruktorlar, muhandis va ishchilarning ijodiy ruhda mehnat qilishlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy

manfaatdorlikni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Yaponiya korxona va firmalarida ijodiy guruhlar, sifat guruhlari tashkil qilingan, ya'ni fan-texnika

taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq bo'lmish universitetlar, ilmiy markaz va laborotoriyalar bilan aloqalar rivojlantirilmoqda. Yaponiyaning bugungi kunda robotlar hamda zamонавиу texnika va texnologiyalarning boshqa turlarini yaratishda birinchi o'rnlarda turishi ham bejiz emas.

Turistik korxonalar ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligini oshirishning muhim omillaridan yana biri sifatida *mavjud ishlab chiqarish salohiyati* - asosiy va aylanma fondlar, ishchi kuchidan tejamkorlik asosida, iloji boricha unumliroq foydalanishni ko'rsatish mumkin. Bundan tashqari ularga buyumlashgan mehnat sarflanganligi, ya'ni korxonaning bugungi egalaridan tashqari avvalgi avlod vakillarining ham mehnati mavjudligi bilan izohlash mumkin.

Turistik korxonalar ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligini oshirishda *tashkiliy iqtisodiy omillar*, jumladan, boshqaruv ham muhim o'ringa ega. Ularning ahmiyati ishlab chiqarish miqyosining o'sishi va xo'jalik aloqalarining murakkablashishi bilan ortib boradi. Bu omillar qatoriga birinchi o'rinda, oqilona ishlab chiqarish shakllarini yaratish va mavjudlarini takomillashtirish - kontsentratsiya, ixtisoslashtirish, mumkin.

Korxona faoliyatining samarali bo'lishida *ishlab chiqarishni intensivlashtirish*, ishlab chiqarilayotgan *mahsulotlarning turi va sifatini*

«Инновация-модернизациянинг концептуал асоси»

oshirish hamda jahon standartlari darajasiga etkazish, korxonaning ishlab chiqarish tuzilmasini yaxshilash kabi omillar ham muhim o'rinni egallaydi.

Samaradorlik - xo'jasizlik, isrofgarchilik va boshqa talofatlarning antipodidir.

Biroq samaradorlik o'z-o'zidan avtomatik ravishda kelmaydi. Fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish quvvatlari va resurslardan oqilona foydalanish, tejamkorlikka rioya qilish, ishlab chiqarishni intensivlashtirish, boshqaruv tizimini

takomillashtirish va oqilona investitsion siyosat samaradorlikni oshirishning muhim

omili va yo'nalishi bo'lib xizmat qiladi.

Samaradorlikning asosi xarakatlarni minimallashtirish va foydani maksimallashtirishdadir. Korxona xo'jalik yuritishining samaradorligini tavsiflovchi

asosiy ko'rsatkichlar sifatida mehnat mahsuldorligi, fond qaytimi va fond sig'imi,

material sig'imi, mehnat sig'imi, rentabellik va hokazolarni ko'rsatish mumkin.

Korxonaning barqarorligi yoki nochorligi uning samarali yoki samarasiz faoliyat yuritishini mos ravishda aks ettiradi.

EKOLOGIK TA'LIM VA MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA

ILG'OR METODLARNING O'RNI

B.I.Jabborov, O.U.Sobirova - BuxDU

Ekologik bilim, ong, tushuncha fikr va madaniyatga ega bo'lgan o'quvchi ertaga atrof muhit himoyasiga ona tabiat boyliklaridan oqilona, tejab, tergab o'z o'mida foydalanishga bel bog'lagan shaxs yoki mutaxasis hech bo'limganda tabiat shaydosi bo'lib yetishadi. Har qanday tabiiy resurslarning tunganmas emasligini inobatga olgan holda ularni tejab tergashga intiladi. O'rta umum talim maktabalarida akademik litsey va kasb hunar kollejlarida ekalogik talim tarbiyani olib borish jarayonida o'quvchilarda ekalogik madaniyat va uning elementlari shakllantiriladi, buning uchun o'quv dargohlarida qator tabiiy fanlarni o'qitishda va boshqa fanlarni o'qitishda bir qator ta'lim tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishda "Ekologik madaniyat"ni shakllantirishda bir qator ilg'or metodlar qo'llab borsak bugungi yoshlar tarbiyasida, ta'limida ekologik madaniyatni shakllantirishda bir muncha ijobjiy aniq natijalarga erishishimiz mumkin bo'ladi.

Ekologik empativ metodi - O'rta umum ta'lim maktabalarining tabiatshunoslik, geografiya, biologiya, ona tili va adabiyot, kimyo akademik litsey va kasb hunar kollejlaridagi bir qator tabiiy fanlar, ijtimoiy, gumanitar fanlarni o'qitishda har bir darsda -tabiat go'zalligini his qilish uning nihoyatda rang barangligini anglash va og'riqlarini sezish, unga hamgart bo'lishga intilish

«Инновация-модернизациянинг концептуал асоси»

МУНДАРИЖА

Муқаддима	3
1-шўба Олий таълим, фан ва ишлаб чиқаришнинг инновацион ҳамкорлиги	
1. Г.Т.Зарипов. Мамлакатимизда инновацион фаолиятни ривожлантириш масалалари	4
2. Б.Р.Адизов, М.Хикматова. Олий мактаб ўқитувчиси инновацион фаолиятининг хусусиятлари	5
3. Д.А.Каримова, Б.Д.Холмуродов. Кимё саноати корхоналари билан инновацион ҳамкорлик ва унинг аҳамияти	8
4. Д.Д.Джалолова. Таълим жараёнида фанларни ўқитишида талабаларнинг фикрий фаолиятини инновацион методлар ёрдамида фаоллаштириш	9
5. Zoirova D.A, Maxmudov Q.Yu. Language interference	12
6. N.Rakhmatullaeva. Simulations as an innovative method of teaching international relations	14
7. А.И.Сайдов, Ш.Ўроков. Бўлажак колледж ўқитувчиларини инновацион тайёрлаш ғоясининг генезиси ва ривожланиши	16
8. M.Saidova. The implementation of pre, while, post stages of reading skill in english language classes	19
9. З.Вафаева. Масофавий таълимда замонавий ахборот ва коммуникация технологиялари	22
10. N.N. Zaripov. Oliy ta’lim o’quv jarayonini tashkil etishda innovatsion texnologiyalarning roli	24
11. Ш.М.Имомова, З.Р.Қазокова. Модулли ўқитиш методикасини жорий этиш инновацион технологияси	26
12. Қ.Ю.Махмудов, М.Максудов, А.Музаффаров. Таълим жараёни сифати ва самарадорлигини касб-хунар колледжларида ошириш	28
13. М.М. Tairova, M. Hamidov. The ways of utilizing innovative marketing in the operation of small business С.С. Расулов, И.Қ. Абдурахманова. Ердан самарали фойдаланишини ташкил этиш оркали аҳоли бандлигини ошириш имкониятлари	30
14. Д.И.Рўзиева, Ф.А.Бекмуродова. Инновация – модернизациянинг концептуал асоси	34
15. Ш.Х.Самиева, М.Х.Мажидова. Таълим тизимида дизайн йўналишини ривожлантиришнинг устувор вазифалари	37
16. А.Х.Шобоев. Создание математической модели системы электроснабжения в виде информационного массива	39
17. N.A. Shamsiyev, M.S. Saidova. Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar	41

«Инновация-модернизациянинг концептуал асоси»

Математик моделлаштириш усулларининг асосий афзаликлари ва камчиликлари	
Х.Т.Артикова, С.М.Назарова	
Табиий фанларни ўқитишида замонавий педагогик омилларни кўллаш	299
С.Қ.Қаҳхоров, Ҳ.О.Жўраев	
Табиий фанларни ўқитишида фанлараро интеграциядан фойдаланиш	302
Halimova R.S., Halimova D.S	
Ta’lim sifati samaradorligini oshirishda didaktik o’yinlarning ahamiyati (kimyo fani misolida)	305
B.Karimov	
Buxoro viloyatida agroekologik sharoitida tokzorlardan yuqori hosil olish	310
Қодирова З.Қ.	
Аминокислоталар мавзусини ўқитишида турли хил дидактик ўйинлардан фойдаланиш	313
Н.М.Тўраева	
Тупрокларнинг шўрланиш омиллари ва уни олдини олишни бошқариш тадбирлари (бухоро вилояти мисолида)	316
У.Мавлонов, А. Мухаммедова	
Табиий фанларни ўқитилишида педагогик технологияларнинг роли ва унинг самарадорлиги	319
Зарипов Г.Т., Ю.С.Бешимов, Акрамова О.К.	
Использования пивоваренных дрожжей в кормовых целях	322
Бешимов Ю.С., Зарипов Г.Т., Ахмедова М.Б.	
Эффективность использование отходов пивоваренного производства	325
А.Э.Сатторов	
Бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчилари педагогик маданиятини шакллантириш технологиялари	328
A.Ergasheva	
Turizm biznesida samaradorlik tushunchasi.	330
B.I.Jabborov, O.U.Sobirova	
Ekologik ta’lim va madaniyatni shakllantirishda ilg’or metodlarning o’rni	334
B.I.Jabborov, Sh.Sh.Sharirova	
Atrof muhit muhofazasida ekologik ta’lim tarbiya va madaniyatning o’rni	337
B. B. Jabborov, M.Esanova	
Ekologik ta’lim tarbiya va madaniyatni shakllantirish	340
Hotamova M.S., Roziqova N.	
O’quv jarayonining samaradorligini oshirishda yangi axborot va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish vositalari	342